

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-1



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№ SI-1 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-SI-1>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)

Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Фофуров Низомжон Октябрович
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Сабиров Алишер Сабирович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам (США)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Муйдинова Моҳира Муқимжоновна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ходжаев Собир Джумаевич
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)
Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Акрамов Хусан Фуркатович
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харасович
кандидат политических наук, и.о. доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Сеитов Азамат РАЗВИТИЕ СОЦИОЛОГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ: ОТ ПРОШЛОГО К ПЕРСПЕКТИВНОМУ БУДУЩЕМУ.....	5
2. Sabirova Umida SOTSIOLOGIK MONITORING YARATISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	12
3. Алексеева Виктория КОНЦЕПЦИИ ГЕНДЕРНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В АНАЛИЗЕ ДИНАМИКИ СОЦИАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ.....	21
4. Kayumov Kaxramon KICHIK SHAHARLARNI ILMIY O'RGANISHNING SOTSIOLOGIK JIHLTLARI.....	30
5. Alikariyeva A'loxon TA'LIM SIFATI BOShQARUVIGA NAZARIY YONDASHUVLAR TAHLILI.....	36
6. Mannanova Nilufar DAVLAT XIZMATCHILARINI MERITOKRATIK YONDOSHUV ASOSIDA TANLASH – JAMIYATDA ADOLAT TAMOIYILI QAROR TOPISHINING MUHIM MASALASI SIFATIDA.....	44
7. Mo'minov Zokirjon IJTIMOIY MOBILLIK OMILINI TADQIQ ETISHNING METODOLOGIK JIHLTLARI.....	51
8. Jiyanmurotova Gulnoz YOSHLARNING SIYOSIY INSTITUTLARGA NISBATAN ISHONCHI MUAMMOSI: NAZARIY ASOSLAR.....	58
9. Сеитов Мансур МОЛОДЕЖНАЯ ПОЛИТИКА В ФОРМИРОВАНИИ ЖИЗНЕННЫХ ПОЗИЦИЙ МОЛОДЕЖИ: ОТЕЧЕСТВЕННЫЙ ОПЫТ.....	66
10. Узакова Зарина СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ: ОТ СОЦИАЛЬНОЙ К БИОПСИХОСОЦИАЛЬНОЙ МОДЕЛИ ИНВАЛИДНОСТИ.....	74
11. Ziyayeva Xolida AGRESSIV XULQ-ATVORNI O'RGANISHGA QARATILGAN NAZARIYALAR TAHLILI.....	80
12. Imomova Nozimaxon MEHNAT MIGRATSIIYASINI VUJUDGA KELISHI VA TRANSFORMATSIYALASHUVINING IJTIMOIY OMILLARI.....	88
13. Shokirov Shaxrizod HUQUQBUZARLIK VA JINOYATCHILIKNI OLDINI OLISHDA JAMOATCHILIK BILAN HAMKORLIKDA ISHLASH.....	93

14. Ixtiyarov Farxod INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH – IJTIMOYIY BARQARORLIK VA TARAQQIYOT OMILI.....	102
15. Akramov Xasan YANGI O‘ZBEKISTONNING SPORT STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISHDA NORMATIV-HUQUQIY BAZASINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	108
16. Kalanova Sabohat JAMIYATDA AVLODLAR ALMASHINUVI JARAYONLARI IJTIMOYIY HODISA SIFATIDA.....	117
17. Axrorov Zohidjon O‘ZBEKISTONDA IJTIMOYIY HODIM KASBINING JORIY ETILISHI, IJTIMOYIY SIYOSATNING AMALIY NATIJASI SIFATIDA.....	126
18. Xujanov Zafar KAMBAG‘ALLIK SABABLARI VA UNI QISQARTISHGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLARI.....	132
19. Turanazarov Umid KASBIY KOMPETENTLIK MOHIYATI VA RIVOJLANTIRISHNING OMILLARI.....	138
20. Kaxarova Nilufar SHAXAR MEGOPOLISIDAGI AYOLLAR MEHNAT MIGRATSIYASINING MUAMMOLARI VA IMKONIYATLARI.....	145
21. Хакимова Анора ОСОБЕННОСТИ РАБОТЫ С МОЛОДЫМИ СПЕЦИАЛИСТАМИ В ОРГАНИЗАЦИИ.....	154
22. A‘zamxonov Saidabzalxon TALABALAR MUSTAQIL TA‘LIM OLIISHINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	163
23. Ro‘zimatov Elbek VOLONTYORLIK HARAKATINING NAZARIY TAHLILI.....	170
24. Masharipov Baxtiyar SHAHAR INFRATUZILMASINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI.....	177
25. Muzaffarov San‘atbek VOLONTYORLIK HARAKATI – EZGULIK VAKSINASI.....	185
26. Yo‘ldashev Shoxrux YOSHLAR BUGUNGI KUN RIVOJLANISHI SHAROITIDA MADANIY-HUQUQIY MUHITNING SUBYEKTI VA OBYEKTI SIFATIDA.....	190

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Mo‘minov Zokirjon,

Namangan davlat universiteti huzuridagi


TTRPMXQT va MO markazi direktori

sotsiologiya fanlari bo‘yicha

falsafa doktori, (PhD)

e-mail: zokir_odiliy@mail.ru

ИЖТИМОЙ МОБИЛЛИК ОМИЛИНИ ТАДҚИҚ ЭТИШНИНГ МЕТОДОЛОГИК ЈИНАТЛАРИ

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.10800128>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ijtimoiy mobillik omilini tadqiq etishning metodologik jihatlari muallif tomonidan ochib berilgan. Ma'lumki, jahonda ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlikning yuqori darajasi zamonaviy jamiyatining asosiy xususiyatlaridan biriga aylanmoqda. Shaxslarning va butun guruhlarning ham asosiy manfaatlariga ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy va maqom stratifikatsiyalanishi tobora ortib bormoqda. Ijtimoiy jarayonlar o'zgaruvchanligi natijasida ijtimoiy tuzilmalar shaklandi: mulkchilikning rivojlanish jarayoni; moddiy taqsimot, boshqaruv munosabatlari, ishlab chiqarishdagi o'zgarishlar; aholi toifalaridagi turmush darajasi va uning sifati. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, birinchidan, ijtimoiy qatlamlar orasida tuzilma ichidagi oqimlarni shakllanishiga olib kelsa, ikkinchidan esa, ayrim shaxslar hamda butun guruhlarga ijtimoiy mobillikning amalga oshirilishida to'siqlar paydo bo'ladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy qatlam, ijtimoiy mobillik, mehnat mobilligi, yoshlar mobilligi, professional mobillik, mobillik o'lchovlari, stratifikatsiya, ijtimoiy harakatlar, turmush darajasi, shaxs, jamiyat, metod.

Муминов Зокиржон,

Директор Центра ПиПКРПССО при

Наманганском государственном университете,

доктор философии по социологии, (PhD)

e-mail: zokir_odiliy@mail.ru

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ФАКТОРА СОЦИАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье автором раскрываются методологические аспекты исследования фактора социальной мобильности. Известно, что высокий уровень социально-экономического неравенства в мире становится одной из главных особенностей современного общества. Усиливается социально-статусное расслоение, затрагивающее основные интересы отдельных лиц и целых групп. В результате изменения социальных процессов сформировались социальные структуры: процесс развития собственности; распределение материалов,

управленческие отношения, изменения в производстве; уровень жизни и его качество по категориям населения. Из вышеизложенного видно, что, во-первых, это приводит к формированию внутривидовых потоков между социальными слоями, а во-вторых, создает препятствия в реализации социальной мобильности для отдельных личностей и целых групп.

Ключевые слова: социальный слой, социальная мобильность, трудовая мобильность, мобильность молодежи, профессиональная мобильность, измерения мобильности, стратификация, социальные движения, уровень жизни, человек, общество, метод.

Muminov Zokirjon,
Director of the Center for R and
ATMTSES at Namangan State University,
doctor of Philosophy in Sociology, PhD
e-mail: zokir_odiliy@mail.ru

METHODOLOGICAL ASPECTS OF RESEARCHING THE FACTOR OF SOCIAL MOBILITY

ABSTRACT

In this article, the author reveals the methodological aspects of the study of the factor of social mobility. It is known that the high level of socio-economic inequality in the world is becoming one of the main features of modern society. Social and status stratification is increasing, affecting the main interests of individuals and entire groups. As a result of changes in social processes, social structures have been formed: the process of property development; distribution of materials, management relations, changes in production; the standard of living and its quality by category of the population. It can be seen from the above that, firstly, this leads to the formation of intra-structural flaws between social strata, and secondly, creates obstacles in the implementation of social mobility for individuals and entire groups.

Key words: social class, social mobility, labor mobility, youth mobility, professional mobility, dimensions of mobility, stratification, social movements, standard of living, person, society, method.

KIRISH

2023-yilning 11-aprel kuni yoshlar siyosati sohasidagi ishlar natijadorligini oshirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishida Muhtaram Prezidentimiz "Barcha rahbarlar bir narsani bilib olsin: ertangi kunimiz egalari bo'lgan yoshlar bilan ishlash – biz uchun hayot-mamot masalasi! Biz yoshlarga bugundanoq sharoit qilib bermasak, ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha inqilobiy tashabbuslarni ilgari surmasak, Yangi O'zbekistonni qanday barpo qilamiz?", [1] deb bejizga aytmaganlar.

Yoshlar bugungi kun jamiyatining barcha ijtimoiy qatlamlarida namoyon bo'lib, uning eng muhim tarkibiy elementiga aylanmoqda. Mamlakatimizda 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar 19 milliondan ortiq yoki aholining 55 foizini tashkil qiladi. Mehnat [2] bozoriga har yili 600 ming yoshlar kirib kelayotgan bo'lsa, kelgusi 10 yilda bu raqam 1 millionga yetadi. Shu bois mamlakatimizda yoshlarga sifatli ta'lim berish, kasb-hunarga o'qitish va bandligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jamiyatning turli qatlamlaridagi yoshlarning ijtimoiy mobilligi imkoniyatlarini o'rganish bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

METODOLOGIYA

Ijtimoiy mobillikni o'rganishda nazariy va uslubiy jihatlari tahlil qilganda bir qator muammolar mavjud:

1. Ijtimoiy mobillik nima?
2. Yoshlarning ijtimoiy mobilligiga qanday faktorlar ta'siri mavjud?
3. Shaxs bir ijtimoiy maqomdan ikkinchisiga o'tishiga qanday faktorlar ta'sir qiladi?

P.A.Sorokin [3] ijtimoiy mobillikni o'rgangan dastlabki olim. Ijtimoiy mobillikni u shaxsning yoki ijtimoiy ob'ekt(qiyamat) ning (ya'ni, inson tomonidan yaratilgan yoki o'zgartirilgan barcha predmetning) bir ijtimoiy holatidan boshqasiga o'tishi tushuniladi. Nazariy yo'nalishda "kundalik hayotning keng o'zgarishini anglash" sifatida zamonaviy jamiyatda mobillikning taklif qilinayotgan kontseptual [4] modeli ijtimoiy tuzilmaning turli hajmlaridagi, turli vaqt o'lchamlariga ega bo'lgan va turmushning turli sohalariga ta'sir ko'rsatadigan harakatlardan iborat.

Mobillikni kengaytirilgan tushunish kontseptsiyasi P.A.Sorokin tomonidan kiritilgan an'analarga, shuningdek, ijtimoiy mobillikni o'zgartirish haqidagi munozaralarga mos kelgan. "Ko'p o'lchovli mobillik" tushunchasi turmushning bir nechta sohalarida bir vaqtda sodir bo'ladigan va bir-biri bilan bog'liq harakatlarni o'z ichiga oladi:

- bandlik va tarmoq mobilligi;
- ta'lim mobilligi;
- hududiy va uy-joy mobilligi.

ASOSIY QISM

Mobillik tushunchasi turmushning mazmunan o'zgarishi sifatida uni ob'ektiv va sub'ektiv harakat birligida ko'rib chiqish sifatida o'rganib kelinadi. Mazmunan sub'ektiv mobillik asl makon yoki ijtimoiy harakatlarga hamkor bo'ladigan aks ettish oqimi tushuniladi.

P.A.Sorokin mobillikning ikki turga ajratgan [5]:

- gorizont va vertikal.

Gorizont mobillik shaxsning bir xil sotsiologik darajada bo'lgan (qayta turmush qilish, ish joyini almashtirish va xokazo) bir xilligini saqlagan holda bir guruhdan ikkinchisiga o'tishini nazarda tutadi.

Vertikal mobillik yuqoriga va pastga, ya'ni ijtimoiy o'sish va ijtimoiy inqirozga ajratilgan. Vertikal mobillik - bu shaxsning ijtimoiy vaziyatning o'zgarishi bilan bir ijtimoiy darajadan ikkinchisiga aylanishidir. Vertikal mobillik maqomning ko'tarilishi bilan bog'liq bo'lgan yuqoriga yoki maqomning pasayishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Vertikal va gorizont mobillik bir-biri bilan bog'langan bo'lib, "gorizont" harakat qanchalik qizg'in bo'lsa ham, ijtimoiy maqomning sezilarli o'sishsiz, ijtimoiy zinapoyaga keyingi ko'tarilish uchun ko'proq imkoniyatlar (aloqalar, bilim, tajriba va boshqalar) to'planadi.

Sorokin ijtimoiy mobillikni o'lchash uchun miqdoriy ko'rsatkichlarni ishlab chiqqan. Masalan, mobillikning cheklanmagan va nisbiy hajmi, uning oralig'idir.

P.A.Sorokin individ bir stratifikatsiyadan ikkinchi stratifikatsiyaga, yuqoriga yoki pastga o'tishning asosiy omillarini aniqladi, shuningdek, har qanday jamiyatda vertikal aylanish jarayonini amalga oshiradigan tuzilma mavjudligi bor, deb fikrlaydi.

- birinchidan, shaxslarning ijtimoiy funksiyalarni aynan bajarilishini aniqlash maqsadida sinov o'tkazish;
- ikkinchidan, ijtimoiy me'yorlarni aniqlash uchun shaxslarni tanlash;
- uchinchidan, jamiyat a'zolarini turli qatlamlarda ularning o'sishi yoki inqirozida to'g'ri qismlarga ajratish.

Yuqoridagi amaliyotning maqsadi shaxsni ijtimoiy qobiliyatini yuzaga chiqarish uchun uning iqtidori va imkonini to'g'ri taqsimlashdan iborat. Har qanday jamiyatda nazorat ishlari ijtimoiy instansiyalar tomonidan amalga oshiriladi.

Ijtimoiy mobillik borasida olib boriladigan tadqiqotlar uch bosqichga bo'linadi:

- birinchidan - sodda miqdoriy usullardan foydalangan holda tadqiqotlar tarixiy va sotsiologik xarakterda;
- ikkinchidan - tadqiqot mobillikning asosiy me'zonlari: ta'lim va kasb yo'nalishlari;
- uchinchidan - ijtimoiy mobillikni o'rganish uchun tadqiqotlar kasbiy yuksalishning Loglinear modelini [6] qurishdan foydalanadilar.

Tadqiqotning birinchi bosqichi R.Bendiks, G.Zitterberg, S.M.Lipset, D.V.Glass va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Birinchi avlod tomonidan ishlab chiqilgan taxminlar jamiyatni sanoatlashtirish deb qaralib, XX asrning ikkinchi yarmida g'arb dunyosining dinamik iqtisodiy ko'tarilish bosqichi hisoblangan.

Shuningdek, tijorat va xizmat ko'rsatishda ishlab chiqarish quvvatlarining ortishi sur'atlari kuzatildi. Iqtisodiy o'sish yuqori sur'atlari davlat hamda korxonalarni boshqarishdagi byurokratik qatlamning yuqori cho'qqiga chiqishi bilan birga vujudga keldi. Oqibatda qishloq xo'jaligida bandlikning qisqarishi, aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchi aholi ulushini ko'payishi kuzatiladi. Shunga ro'ra tadqiqotchilar jamiyatining yangi sifati sanoat-ijtimoiy farovonlik darajasini oshiradi degan xulosa qilishgan.

Sotsiologlar S.Lipset va R.Bendiksler eng yuqori mobillik ko'rsatkichlarini aniqlaganlar [7]:

1. Yosh avlodni "jismoniy mehnat – jismoniy bo'lmagan mehnat – qishloq mehnati" yo'nalishi bo'yicha siljishi (ajdodlarga nisbatan).

2. Nufuzli va nufuzli emas kasblar merosini aniqlash:

- nufuzli - avvalo aqliy mehnat bilan bog'liq bo'lgan kasblar majmuasi;

- nufuzli emas – doimiy jismonan bajariladigan mehnat bilan bog'liq kasblar majmuasi.

3. Yuqoriga, pastga va umumiy vertikal mobillik jadalligini aniqlash.

Birinchi nazariy va empirik tadqiqot Devid Glass [8] boshchiligida "Mavqedagi avlodlar o'zgarishi" yuzasidan o'rganishlar o'tkazilgan. Tahlilga ko'ra, mavqeini oshirish tendentsiyasi ajdodlari past toifalarga mansub subyektlar o'rtasida nisbatan ko'p, ammo bunday mobilligining davomiyligi uzoq davom etmagan. Ajdodlar va farzandlarning mavqei o'rtasidagi munosabatlar ajdodlar malakali qo'l mehnatiga, yoki yuqori ma'muriy, yoki kasb toifasiga mansub bo'lganida eng aniq ko'rinishda bo'lgan.

D.Glass empirik tarzda Buyuk Britaniyadagi ijtimoiy mobillik maqomi "rahm-shafqatsiz doirada" o'tishga moyilligini ko'rsatib, stratifikatsiyalanishning eng yuqori cho'qqisiga yaqin lavozimlarga ishga qabul qilishda imkoniyatlar tengligi mukammal bo'lishi rad etildi.

Ikkinchi bosqich ijtimoiy mobilligini o'rgangan tadqiqotchilar: P.I.Blau, I.Blumen, L.Gudman, O.D.Duncan, D.Treiman va boshqalar.

Tadqiqotlar chiziqli bo'lmagan va ko'p regressiya [9] tahlili kabi statistik usullardan foydalanib, ta'limiy, kasbiy, avlodlar va avlodlararo mobillikni o'rganishgan.

Tadqiqotchilar P.M.Blau va O.D.Duncan mobil guruhni ikki jihatdan ko'rib chiqishgan:

- inson resurslarining iste'molchisi va ishchi kuchi etkazib beruvchi sifatida [10] ko'rilgan.

Ular ma'lum kasbning mehnat bozorida iste'molchi yoki yetkazib beruvchi bo'lish qobiliyati quyidagi omillarga bog'liqligini ta'kidlaganlar:

- kasbiy tuzilmaning vaqtinchalik o'zgarishi;

- toifadagi tug'ilish va o'limning farqi;

- professional stratifikatsiyalanishning ochiqligi yoki yopiqligi.

1. Boshqa mamlakatlarga nisbatan AQShda kasbiy mobillik darajasi anchagina yuqoriligi aniqlangan. Ajdodning farzandlar mavqeiga asosan ta'lim olish orqali ta'siri sezilsada, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy holati ham maqom imkoniyatlariga ta'sir ko'satgan.

2. O'lis hudulardan shaharlarga ko'chgan migrantlar kerakli kasbiy mavqega erishish uchun "turg'un" aholiga nisbatan kengroq imkoniyatlarga egadir. Darhaqiqat, muhojirlar ham, "turg'un" odamlar ham o'zlari tug'ulib o'sgan hududlar rivoji va kasbiy muvaffaqiyatlari o'rasida bevosita bog'liqligini ko'rsatadi.

3. Tadbirkorlik imkoniyatlari muvaffaqiyatiga oila a'zolarining soni bevosita ta'sir ko'rsatgan. Blau va Dunkan jamiyat ta'lim va kasbiy muvaffaqiyat o'rtasidagi bog'liqlikni oshirayotganini ta'kidlashgan. Ularning fikricha, bu aloqa kuchsizlashmaguncha, ijtimoiy mobillikni oshirish imkoniyati birmuncha cheklangan bo'lib qoladi va ta'limning kasbiy stratifikatsiyalanishga kirishida filtr sifatida rol o'ynaydi hamda bunda ijtimoiy nomuttanosiblik saqlanib qoladi. Ikkinchi bosqichdagi juda ko'p o'rganishlarda avlodlar va avlodlararo kasbiy mobillik sohalari tahlil qilingan. O'rganishlarning yangi metodik jihati: oddiy chiziqli regressiya o'rniga ikki yoki undan ortiq o'zgaruvchi mezonga ta'sirini o'rganish lozim bo'lgan ko'p regressiya qo'llanilgan.

Uchinchi bosqich D.L.Fiterman, R.M.Hauser, F.L.Jones kabi olimlarning tadqiqotlari bilan ifodalanadi. Uchinchi bosqichda o'rganishlarning metodik afzalligi log-chiziq tahlil andozasidan foydalanishdir, bu ko'p regressiya [11] modeli bo'lib, unda turli o'zgaruvchilar va ularning

oʻrtasidagi taʼsiri mustaqil oʻzgaruvchilar sifatida qaraladi va oʻzgaruvchining mavqeini turli qaytalishlarining tabiiy logarifmi amalga oshiradi.

Loglinear model ikki oʻlchovli qoʻshishlarni koʻp oʻlchovli namunalar sifatida koʻrib chiqishga, xususan, oʻzgarmas qatlamlarni intilishdagi qatlamlardan alohida modellashtirish imkonini yaratadi.

D.L.Fiterman, R.M.Hauser va F.L.Jones barcha guruhlarini beshta asosiy qatlamga qisqartirishga erishdilar [12]:

1) faoliyati qoʻl mehnatiga bogʻliq boʻlmagan ijtimoiy guruhning eng yuqori qatlami – menejerlar va savdo faoliyat olib boruvchi (chakana savdodan tashqari); mutaxassislar (yollangan hamda yakka tartibdagi faoliyat olib boruvchi ishbilarmonlar);

2) faoliyati qoʻl mehnatiga bogʻliq boʻlmagan eng past qatlam – mulk egalari, kotiblar, chakana savdo xodimlari;

3) jismoniy faoliyatning eng yuqori qatlami - sanoat va qurilish tizimidagi tajribali ishchilar;

4) jismoniy faoliyatning eng past qatlami - mexanizatorlar, xizmat koʻrsatuvchi ishchilar, tajribasiz xodimlar;

5) fermerlar va qishloq xoʻjaligi xodimlari.

Ijtimoiy mobillikning ushbu modeli beshta kasbiy qatlam oʻrtasidagi qoʻzgʻalmaslik va almashinuvning asosiy usullarini koʻrib chiqib, shunday xulosa qilindi:

1) stratifikatsiya darajasining eng baland hamda eng suyi qatlamlari ijtimoiy mobillikning past bosqichi bilan taʼriflanadi;

2) eng yuqori oʻsish oʻrta qatlamlar orqali amalga oshiriladi;

3) ijtimoiy minoraning yuqori va pastki qismida yuqori va quyi tabaqalanishlararo chegaralar mavjudligini bildiruvchi asosiy toʻsiqlar mavjud;

4) shaxslar ham balandga, ham quyiga harakatlanish uchun yetarli imkoniyatlar mavjud;

5) kasbiy stratifikatsiyaning oʻrta qatlamlarida ijtimoiy mobillik muhim ahamiyatga ega emas.

Amerikalik sotsiolog K.T.Erikson va ingliz sotsiologi J.G.Goldtorplar tomonidan taklif qilingan CASMIN loyihasi - guruh mobilligi modeli - ijtimoiy mobillikdagi millatlararo farqlar haqidagi tushunchani bir necha muhim yoʻllar bilan kengaytiradi, birinchi navbatda, ijtimoiy kelib chiqish va yoʻnalishlar oʻrtasidagi bogʻliqlik farqlari imkoniyatlarni kengaytiradigan yoki cheklaydigan davlat siyosatining oqibatlarini qanday aks ettirishini koʻrsatadi [13].

CASMIN loyihasi (“Sanoat rivojlangan mamlakatlarda mavjud ijtimoiy mobillikni qiyosiy tahlili”) Gʻarbiy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida mobillik borliqdagi oʻxshashlik va farqlarnishiga qaratilgan boʻlib, loyiha oʻrganuvchilari quyidagi xulosaga kelishgan:

1) XX asrning ikkinchi yarmida mobillik darajasi kutilganidan yuqori boʻlgan;

2) “yaqin” mobillik bilan bir qatorda ishchilar sinfidan yuqori sinfgacha sezilarli darajada “uzoq masofa” mobilligi mavjuddir;

3) yuqori va oʻrta sinflar tarkibi oʻzgaruvchanligi kuzatilgan.

CASMIN modeli mobillik jarayonlarida guruhlar oʻrtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy farqlarning oʻrni va millatlararo farqlar darajasini aniqlaydi. Xususan, CASMIN modeli bilan bogʻliq muammolar uni yuqori darajada birlashtirilgan professional guruhlariga qoʻllash, guruhlar oʻrtasidagi ierarxiy yoki vertikal farqlarni bostirish, kelib chiqish va maqsad guruhlarining assimetrik tasnifida yotadi.

Bunda, muqobil spetsifikatsiya koʻproq professional tafsilotlarga asoslangan boʻlib, regressiya modellariga oʻxshash chiziqli ifodalarda uzluksiz kovariatlarni [14] oʻz ichiga oladi va kelib chiqishi hamda boradigan joylari oʻrtasidagi bogʻliqlikka simmetriya qoʻyadi. Shuni eʼtiborga olish kerakki, baʼzan regressiya tahlilida mustaqil oʻzgaruvchilar kovariatlar sifatida ham tanilgan. Buning sababi shundaki, ular bogʻliq oʻzgaruvchining natijasini bashorat qilishadi.

CASMIN modeli butun mobillik modellarini aniqlashda, shuningdek, millatlararo farqlarda hududlarga nisbatan ierarxiya va merosning ahamiyatini kam baholagani aniqlagan. Bundan tashqari, bu modelning simmetriyasi umumiy mobillik koʻrsatkichlarida millatlararo farqlarga hissa qoʻshadigan omil sifatida strukturaviy mobillikni tahlil qilishni osonlashtirgan.

XULOSA

Ijtimoiy mobillikni o'rganishda "yakka tartibdagi mobillik" tushunchasidan foydalanish mumkin, ya'ni odamlar ijtimoiy tuzilishning bir hujayrasidan ikkinchisiga o'tishi, ammo bu tushuncha jamiyat guruhlar va qatlamlarga bo'lingandagina ilmiy ma'noga ega bo'ladi.

Olimlar o'rganishlar natijasida iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar natijasida ijtimoiy mobillik intensivligining ortishini aniqlaganlar. Ijtimoiy mobillikka ta'sir etuvchi omillar, xususan, iqtisodiy rivojlanish darajasi, demografik omillar, texnologik omillar va boshqalar keltirilgan. Tadqiqotchilar tomonidan o'rganishlar natijasiga ko'ra turli davrlarda va turli davlatlarda ijtimoiy mobillik teng bo'lmagan intensivlik hamda yo'nalishga ega ekanligini tasdiqladi. Ijtimoiy harakat imkoniyatida alohida guruhlarning hayot imkoniyatlarining tengsizligi haqida xulosa chiqariladi.

CASMIN modeli hududga nisbatan ierarxiyaning ahamiyatini va umuman mobillik modellarini, shuningdek, millatlararo farqlarni aniqlashda merosni kam baholaydi degan xulosaga kelgan. U nufuzi va ijtimoiy-iqtisodiy holati bo'yicha heterojen [15] guruhlarni birlashtiradi, guruh birliklarining vertikal holatini noto'g'ri belgilaydi hamda vertikal effektlarning zaif spetsifikatsiyasini qabul qiladi. Bunda vertikal mobillikni pasaytirish orqali mobillikka vertikal bo'lmagan ta'sir ko'rsatishni asosli yoki zarur deb hisoblanadi.

Ierarxiya effektining chiziqli spetsifikatsiyasi kelib chiqish nufuzi va maqomining manzil nufuzi va maqomiga kuchli ta'sirini belgilaydi hamda CASMIN modeli kelib chiqish va boradigan joy orasidagi masofaning mobillik tezligiga ta'sirini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bizning afzal ko'rgan modellarimiz, shuningdek, hatto vertikal harakatchanlik atamaları erkin miqyosda yaxshi aniqlanmagan bo'lsa ham sanoat joylashuvining muhim ta'sirini ochib beradi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. <https://www.yuz.uz/uz/news/yoshlar-siyosati-boyicha-mutlaqo-yangi-vertikal-boshqaruv-tizimi-yaratildi>.
2. Mehnat – jamiyat yoki alohida individ talab va ehtiyojlarini qondirish uchun bajariladigan faoliyat turidir. Mehnat iqtisodiyotda ishlab chiqarish omillaridan biri sifatida ko'riladi.
3. Сорокин, П.А. Социальная стратификация и мобильность / П.А.Сорокин // Человек. Цивилизация. Общество. – М. : Политиздат, 1992. – С. 295-425.
4. Konseptualizm (lotincha conceptus – fikr, tushuncha) sxolastik falsafaning yo'nalishi; bilim tajriba bilan keladi, lekin tajribadan kelib chiqmaydi, degan ta'limot.
5. <https://motherhouse.ru/uz/prodazha-kvartir/vysokaya-mobilnost-cto-takoe-socialnaya-mobilnost-primery/>
6. Loglinear tahlil – bu ikki toifali o'zgaruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni tekshirish uchun statistikada qo'llaniladigan usul.
7. Lipset S., Bendix P. Social mobility in industrial societies. – Colifornia Press, 1959. – P.13.
8. Глас Д. Социальная мобильность в Великобритании/Д.Глас, Н.И.Лапин. Эмпирическая социология в западной Европе:учебное пособие. – М.: ГУ ВШЭ, 2004-2003. – С. 273.
9. Regressiya bu – ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish usullaridan biri bo'lib, obyekt yoki jarayonga tegishli o'zgaruvchilar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni baholash uchun statistik jarayonlar to'plami hisoblanadi.
10. Blau P.M., Duncan O.D. the Amerikan occupational structure. – N.Y.: John Wiley and Sons, 1967. – Ch. 5.
11. Regressiya – (matematikada) biror (u) tasodifiy miqdor o'rta qiymatining boshqa bir tasodifiy miqdoriga bog'likligi. Regressiya tabiat va jamiyat hodisalarini o'rganishda muhim matematik vosita hisoblanadi.
12. Featherman D.L., Hauser P.M. A Refined model of Occupational Mobility. – N.Y., 1978.
13. Erikson R., Goidhorpe J.National variation in social fluidity//CASMIN project working paper. – 1986. № 9; Erikson R.,Goidhorpe J.The Constant Flux / Oxford: Clarendon Press, 1992. – P.1–27.

14. Kovariat – bu tajribada asosiy qiziqish uyg‘otmaydigan, ammo bog‘liq o‘zgaruvchiga va mustaqil o‘zgaruvchining qaram o‘zgaruvchiga bo‘lgan munosabatiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan o‘zgaruvchi. Kovariat har doim doimiy o‘zgaruvchidir.
15. Heterojen ta’rifi: bir-biriga o‘xshamaydigan yoki xilma-xil tarkibiy qismlardan yoki tarkibiy qismlardan iborat: aralashgan etnik xilma-xil populyatsiya. Sotsiologiyada “heterojen” turli etnik, madaniy kelib chiqishi, jinsi yoki yoshidagi shaxslarni o‘z ichiga olgan jamiyat yoki guruhni anglatishi mumkin.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

1-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-1

MAQOLADA KELTIRILGAN DALILLARNING TO'G'RILIGI UCHUN MUALLIF MAS'ULDIR | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000